

# YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sattoriy Fayzulloh Abdijabbor o‘g‘li

PhD., katta o‘qituvchi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062808>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi strategik o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Jahon tajribasi asosida mazkur sektorning yalpi ichki mahsulot, bandlik va innovatsion faollikdagi hisssasi yoritilib, O‘zbekiston sharoitida uni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kichik biznesni rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish, bandlik.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta‘minlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotida global inqirozlarning tez-tez takrorlanishi, mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalaridagi noaniqlik va xalqaro bozorlarda raqobatning keskinlashishi sharoitida iqtisodiy barqarorlikni saqlash va uni davom ettirish ko‘plab davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vaziyat jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorlikning chuqur ildizlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu global moliyaviy bozorlarning noaniqligi, savdo urushlari, geosiyosiy mojarolar, pandemiyalar va boshqa kutilmagan xavflarning ta‘siri natijasida vujudga kelmoqda. Bu omillar milliy iqtisodiyotlarni nafaqat tashqi, balki ichki iqtisodiy siyosatni ham qayta ko‘rib chiqish, moslashuvchan iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishga undamoqda. Mazkur sharoitlarda mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishning yangi, samarali va innovatsion modellarini yaratish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash hamda uzoq muddatli barqaror taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashga intilmoqda. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori alohida o‘rin egallaydi, chunki aynan

ushbu sektor mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, ichki bozorning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsiyalarni tezroq joriy qilish imkoniyatlarini yaratadi. Shu sababli kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida samarali institutsional va tashkiliy mexanizmlarni shakllantirish hamda ularni jahon tajribasi asosida takomillashtirishga ehtiyoj tobora ortmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasi ham iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimizda davlat tomonidan kichik biznes subyektlarini rivojlantirish yo'lida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, ushbu sektorni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qonunchilik bazasi takomillashtirilib, soliq siyosatida imtiyozlar tizimi kengaytirilmoqda, moliyaviy va kredit resurslariga erishishni soddalashtirish bo'yicha kompleks dasturlar qabul qilinmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan institutsional islohotlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari davlatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, 2022–2026-yillar uchun belgilangan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda kichik biznes va tadbirkorlikning o'rnini oshirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Ushbu strategiyalar doirasida kichik biznes subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga kirishdagi to'siqlarni kamaytirish, boshqaruv tizimini soddalashtirish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli nafaqat bozor iqtisodiyotining tarkibiy elementi sifatida, balki barqaror iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy muvozanat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kafolati sifatida ham tobora ortib bormoqda. Iqtisodiyotning barqarorligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ushbu subyektlarning roli dolzarb ilmiy muhokama va siyosiy qarorlar

markazida turibdi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, bozor muvozanatini saqlaydi hamda iqtisodiy krizislar sharoitida moslashuvchanlik mexanizmlarini ishga soladi (Acs & Audretsch, 2003).

Mazkur tushunchalar iqtisodiy adabiyotlarda turli maktablar va yondashuvlar orqali talqin etilgan. Klassik iqtisodiy nazariya doirasida, kichik biznes ko'pincha cheklangan kapital, kam miqdordagi ishchi kuchi va past samaradorlik bilan tavsiflangan korxonalar doirasida ko'rilgan (Smith, 1776). Biroq, 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, globallashuv jarayonlari, texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy inqirozlar fonida kichik biznesga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi. Ular nafaqat iqtisodiyotning passiv elementi, balki innovatsion rivojlanishning faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda (Carree & Thurik, 2010).

Amerikalik iqtisodchi D. Birch (1987) kichik biznesni iqtisodiy o'sishning "dvigateli" deb atagan. U o'z tadqiqotlarida, ayniqsa AQSHda 1970-80-yillar mobaynida yaratilgan yangi ish o'rinlarining katta qismi aynan kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilganligini aniqlagan. Ushbu yondashuv, kichik biznesning makroiqtisodiy ahamiyatini oshirishda muhim burilish nuqtasiga aylangan. Shu bilan birga, ushbu sektorda ishlovchilar sonining ortib borishi, ayollar va yoshlarning biznesda faol ishtirok etishi, ijtimoiy tenglikni ta'minlashda ham ularning o'rnini kuchaytirgan.

Raqamli texnologiyalar keng tarqalishi bilan kichik biznes yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Internet orqali xizmat ko'rsatish, e-commerce, freelance va boshqa zamonaviy biznes modellari ushbu sektorning rivojlanishini tezlashtirdi. Bu esa ularning iqtisodiy tizimdagi adaptivlik darajasini oshirib, iqtisodiy barqarorlikka bevosita hissa qo'shmoqda (Bharadwaj et al., 2013).

Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar misolida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy inqirozlardan chiqishda "katalizator" sifatida ko'rilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda mazkur yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, huquqiy, moliyaviy va institutsional mexanizmlar orqali ularni qo'llab-quvvatlash kuchaytirilmoqda. Shuning uchun, bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish

nafaqat iqtisodiy strategiya, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida qaralmoqda.

Xususiyl tadbirkorlik esa iqtisodiy mustaqillik, tashabbuskorlik va riskni o'z zimmasiga olish kabi xususiyatlarga asoslangan bo'lib, u iqtisodiy faoliyat yuritish huquqining amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Tadbirkorlik atamasi iqtisodiy adabiyotga ilk bor XVIII asrda fransuz iqtisodchisi Richard Kantillon tomonidan kiritilgan bo'lib, u tadbirkorni noaniq va xatarli sharoitda qaror qabul qilib, iqtisodiy resurslarni boshqaruvchi subyekt sifatida tasvirlagan (Cantillon, 2010). Kantillon nazariyasi bozor iqtisodiyotida risklarni boshqarish va imkoniyatlarni aniqlashda tadbirkorning asosiy rolini ko'rsatadi.

Mazkur yondashuv keyinchalik J.B. Say, Y. Shumpeter, P. Druker kabi yirik iqtisodchilar tomonidan chuqurlashtirildi. Ayniqsa, Yozef Shumpeter o'zining "innovatsion buzilish" nazariyasida tadbirkorlikni jamiyatda yangilik kiritish, texnologik taraqqiyot va bozorni yangilash vositasi sifatida talqin qilgan (Schumpeter, 1934). Unga ko'ra, har bir tadbirkor – bu mavjud vaziyatni yangilab, iqtisodiy tizimni rivojlantirishga xizmat qiluvchi islohotchi agentdir. Bunday yondashuv kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni faqat iqtisodiy subyekt emas, balki jamiyatdagi tizimli o'zgarishlarning katalizatori sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu sababli, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik jamiyatda nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik va inson salohiyatining rivojlanishini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu esa ularni milliy iqtisodiy strategiyalarning ajralmas komponenti sifatida shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Quyidagi yondashuvlar kichik biznesning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy masalalarni hal qilish va innovatsiyalarni joriy etishdagi ahamiyatini aks ettiradi. Kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarni boshqarishda ham muhim rol o'ynaydi.

**Kichik biznes tushunchasiga turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan  
berilgan ta'riflar**

| <b>Muallif va<br/>yil</b> | <b>Kichik biznes haqidagi qarashlar</b>                                                                                                                                                                                                                      |
|---------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| R.Kantillon<br>(1755)     | Kantillon tadbirkorni iqtisodiy resurslarni noaniqlik sharoitida taqsimlashda tavakkal qiluvchi shaxs sifatida ta'riflagan. Uning fikricha, tadbirkorlar bozor sharoitlarini tahlil qilib, risklarni o'z zimmlariga olishadi.                                |
| J.B. Say<br>(1803)        | Say tadbirkorlarni ishlab chiqarish va resurslarni samarali boshqarish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi subyektlar sifatida ta'riflagan. Ularning asosiy vazifasi iqtisodiy resurslarni boshqarishda samaradorlikni oshirishdan iborat.            |
| J. Shumpeter<br>(1911)    | Schumpeter tadbirkorlikni "ijodiy yo'qotish" (creative destruction) jarayoni sifatida tasvirlagan. Uning fikricha, kichik bizneslar yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish orqali bozordagi eski strukturalarni yo'q qilib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. |
| D. Birch<br>(1979)        | Birch kichik biznesni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rgan. Uning tahlillariga ko'ra, kichik bizneslar katta korxonalarga qaraganda ko'proq ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy kengayishga katta hissa qo'shadi.                            |
| M. Yunus<br>(2010)        | Yunus kichik bizneslarni ijtimoiy tadbirkorlik vositalari sifatida ta'riflagan. Ular nafaqat iqtisodiy foyda olishga, balki kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat yuritadilar.                                 |
| M. Porter<br>(2010)       | Porter kichik bizneslarning sanoatdagi raqobatbardoshlikni yaratishdagi rolini ta'kidladi, muvaffaqiyat uchun innovatsiya va farqlashning muhimligini ta'kidlagan.                                                                                           |
| L.C. Sarah<br>(2016)      | Sarah kichik bizneslarni qishloq va mintaqaviy rivojlanishda, ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy omillari sifatida ko'rgan.                                                                                 |

Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Dunyoda kichik va o'rta biznes sektorining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, AQShda kichik biznes sektori jami korxonalarning 99 foizdan ortiq qismini tashkil qilib, yalpi ichki mahsulotning (YaIM) taxminan 50 foizini va yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining aksariyatini ta'minlamoqda. AQSh tajribasi ko'rsatishicha, kichik bizneslarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, balki innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish orqali ham namoyon bo'ladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o'rta biznes YaIMning 50–70 foizi va bandlikning 70 foizigacha bo'lgan qismini ta'minlab, iqtisodiyotning tayanch bo'g'iniga aylangan. Ayniqsa Germaniya, Italiya va Fransiyada ushbu subyektlar mahalliy ishlab chiqarish va eksportni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

**Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznesning YaIM hamda bandlikdagi ulushi (2023-yil holatiga)**

| <b>Mamlakatlar</b>    | <b>YaIMdagi ulushi</b> | <b>Bandlikdagi ulushi</b> |
|-----------------------|------------------------|---------------------------|
| AQSh                  | ~ 50%                  | ~ 50%                     |
| Yevropa Ittifoqi      | 50-70%                 | 50-70%                    |
| Yaponiya              | 50% dan yuqori         | 80% dan yuqori            |
| Xitoy                 | 60% dan yuqori         | 80% dan yuqori            |
| Janubiy Koreya        | ~ 50%                  | 80% dan yuqori            |
| Braziliya             | 60% dan yuqori         | ~ 65%                     |
| Hindiston             | 20% dan yuqori         | ~ 65%                     |
| Rossiya Federatsiyasi | 20% dan yuqori         | 40% dan yuqori            |

Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqildi.

Yevropa Ittifoqining moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash choralari bu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda. Osiyo mamlakatlarida, xususan Yaponiyada kichik biznes YaIMning yarmidan ko'prog'ini, ish o'rinlarining esa 80 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Bu subyektlar iqtisodiy inqirozlarga qarshi kurashda muhim vosita hisoblanadi. Janubiy Koreyada kichik biznes texnologik taraqqiyot va ish o'rinlari yaratilishining asosiy manbai bo'lsa, Xitoyda ularning o'sishi bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Braziliya va Hindistonda ham kichik biznes bandlikni 65 foizgacha ta'minlab, daromadlarni oshirish va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Rossiyada esa ushbu sektor YaIMning atigi 20 foizini va bandlikning 40 foizdan sal ko'prog'ini tashkil etib, kichik biznesni rivojlantirish uchun chuqurroq institutsional islohotlarga ehtiyoj mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining salmog'i va ahamiyati yillar

davomida izchil ortib bormoqda. Mazkur sektorning milliy iqtisodiyotdagi ulushi yuqori ekanligi ko‘plab makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topmoqda (3.3-jadval).

### 3-jadval.

#### **O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog‘i (jami ko‘rsatkichlarga nisbatan, foizda)**

| <b>Ko‘rsatkichlar</b>              | <b>2019-yil</b> | <b>2020-yil</b> | <b>2021-yil</b> | <b>2022-yil</b> | <b>2023-yil</b> |
|------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Yalpi ichki mahsulot               | 65,3            | 62,4            | 56,0            | 55,7            | 54,9            |
| Bandlik                            | 78,0            | 76,3            | 76,2            | 74,5            | 74,4            |
| Sanoat                             | 41,2            | 37,4            | 25,8            | 27,9            | 27,0            |
| Qurilish                           | 64,8            | 73,2            | 75,8            | 72,5            | 72,4            |
| Investitsiya                       | 34,8            | 38,0            | 47,0            | 46,0            | 47,9            |
| Eksport                            | 22,0            | 27,2            | 27,0            | 20,5            | 22,3            |
| Import                             | 53,6            | 56,2            | 61,6            | 51,7            | 48,7            |
| Savdo                              | 88,3            | 86,3            | 84,3            | 82,3            | 82,1            |
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi | 98,1            | 98,3            | 98,3            | 96,7            | 96,7            |
| Xizmatlar                          | 58,4            | 56,0            | 52,1            | 51,8            | 51,1            |
| Yuk tashish                        | 54,2            | 55,5            | 54,6            | 51,6            | 49,4            |
| Yo‘lovchi tashish                  | 90,1            | 89,6            | 90,7            | 93,5            | 92,8            |

Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori mamlakat iqtisodiyotida yetakchi mavqega ega bo‘lib, ayniqsa yalpi ichki mahsulot hajmini shakllantirish, aholining bandligini ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi. Xususan, kichik biznes sektorining bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ulushi 74–78 foiz oralig‘ida bo‘lib, bu sektorning yangi ish o‘rinlari yaratishdagi strategik ahamiyatidan dalolat beradi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi, savdo, transport va qurilish sohalarida ushbu ko‘rsatkichlarning yuqori darajada ekanligi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirish hamda aholining turmush sifatini yaxshilashda kichik tadbirkorlikning muhimligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, investitsiya jalb qilish

hajmining yuqori sur'atlarda o'sib borayotgani ushbu sektorning investitsion jozibadorligini va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyatlarini ochib beradi.

#### 4-jadval.

#### O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining ish o'rinlarini yaratishdagi ulushi, foizda

| Ko'rsatkichlar nomi                                                                                                                         | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, ming kishi                                                                    | 10 541,5 | 10 128,8 | 10 318,9 | 9 865,7  | 10 070,7 |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi band bo'lganlarning mamlakat jami iqtisodiyotidagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi, foizda | 78,0     | 76,3     | 76,2     | 74,5     | 74,4     |

Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori mamlakat miqyosida yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlashda yetakchi mavqega ega bo'lib qolmoqda. Xususan, 2019–2023 yillar oralig'ida mazkur sektorda band bo'lganlar soni o'rtacha 10 million kishidan ziyodni tashkil etib, jami band aholining 74,4–78,0 foiz oralig'ida yuqori ko'rsatkichlarni saqlab kelmoqda. Mazkur holat, kichik biznes subyektlarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlab, ushbu sektorni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va iqtisodiy farovonlikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, bandlik ko'rsatkichlarining barqaror yuqori darajada saqlanib qolishi, kichik biznes sektorini mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida qarash zarurligini ifoda etadi. Mazkur vaziyat, davlat tomonidan kichik tadbirkorlik va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va kengaytirish zarurligini taqozo etadi.

**Takliflar va xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning

globallashuvi, raqamli iqtisodiyot sharoitlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va innovatsion texnologiyalarning keng tarqalishi davrida kichik biznes sektorining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va ahamiyati yanada kuchayib bormoqda. Kichik biznes subyektlari mamlakatda ishlab chiqarishning diversifikatsiyasini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy faoliyatning innovatsion shakllarini rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini oshirishda muhim vazifalarni bajaradi.

Tadqiqot davomida jahon tajribasi chuqur tahlil qilinib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish bo'yicha samarali mexanizmlar shakllantirilganligi aniqlangan. Xususan, AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarda kichik biznesni rivojlantirish uchun qo'llanilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash usullari – jumladan, imtiyozli kreditlash, soliq va boj imtiyozlari, ventur moliyalashtirish fondlari va innovatsion loyihalarni davlat tomonidan subsidiya qilish mexanizmlari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Mazkur ilg'or xorijiy tajribalarni mamlakatimiz sharoitida samarali qo'llash, kichik biznes sektorining raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (2003). *Innovation and Small Firms*. MIT Press.
2. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., & Venkatraman, N. (2013). Digital business strategy: Toward a next generation of insights. *MIS Quarterly*, 37(2), 471–482.
3. Birch, D. L. (1987). *Job Creation in America: How Our Smallest Companies Put the Most People to Work*. Free Press.
4. Bornstein, D., & Davis, S. (2010). *Social Entrepreneurship: What Everyone Needs to Know*. Oxford University Press.
5. Cantillon, R. (2010 [1755]). *Essai sur la Nature du Commerce en Général*. Liberty Fund (originally published posthumously in French).

6. Carree, M. A., & Thurik, A. R. (2010). The impact of entrepreneurship on economic growth. In Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (Eds.), *Handbook of Entrepreneurship Research* (pp. 557–594). Springer.
7. Porter, M. E. (2010). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.
8. Sarah, L. C. (2016). Small business development and rural transformation in emerging economies. *Journal of Regional Development Studies*, 24(3), 112–126.
9. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
10. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.
11. Yunus, M., & Weber, K. (2007). *Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism*. PublicAffairs.
12. Yunus, M. (2010). *Building Social Business: The New Kind of Capitalism That Serves Humanity's Most Pressing Needs*. PublicAffairs.